Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320889

ta´minlashning ustivor yo´nalishlari´ mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Т.С.Маликов. молия: амалий жиҳатлар (2-қисм). Ўқув қўлланма. Тошкент – «Nihol print» OK – 2022. 364 bet.

Hahn Christopher. Finanzierung von Start-up-Unternehmen. Praxisbuch für erfolgreiche Gründer: Finanzierung, Besteuerung, Investor Relations. Herausgeber.trustberg LLP. Berlin, Deutschland.Berlin im Sommer 2018.-304 S.

Атаниёзов Ж.Ҳ. – Ўзбекистонда интеграциялашган тузилмаларни шакллантиришнинг истиқболли йўналишлари. “Халқаро молия ва ҳисоб” илмий электрон журнали. № 1, февраль, 2018 йил. 5-20 б.

Шоҳаъзамий Ш.Ш. Тизимли молия ижиниринги. Монография. –Т.: Фан ва технология, 2012.-796 б.

Туйчиев, А. Г. (2019). Международные и региональные тенденции и проблемы финансирования инноваций и их трансферта в малый бизнес. Финансовый менеджмент, (5), 62-71.

BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISH VA YUQORI IQTISODIY O‘SISH SURATLARINI TA’MINLASHDA XUSUSIY DAVOLASH SEKTORLARIGA DAVLAT, XUSUSIY VA XALQARO MOLIYAVIY RESURSLARNI VA INVESTITSIYALARNI JALB ETISH VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING MUHIM SHARTLARI

Xo‘jamurodova Odina
12-24M-guruh talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada davlat-xususiy sheriklik amaliyotini rivojlantirish orqali infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda xususiy investorlar ishtirokini oshirish masalalari va ahamiyati, DXS o‘zaro iqtisodiy munosabatlar, bunday munosabatlarni rivojlantirish borasidagi xulosalar, amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: davlat-xususiy sheriklik amaliyoti, infratuzilmani moliyalashtirish, xususiy investitsiya, xususiy investorlarni rag‘batlantirish

Kirish (Introduction). Bugungi kunda rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasidan shuni kuzatish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari aholi turmush farovonligini yaxshilash, mamlakat infratuzilmasini rivojlantirish va pirovardida, mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlashda muhim o‘rin tutmoqda. Shuning uchun, bugungi kunda davlat-xususiy sheriklik amaliyotini mamlakat iqtisodiyotida kengroq joriy etish, davlat-xususiy sherikchilik munosabatlariga xususiy investorlarning qiziqishini oshirish, xususiy investorlarning infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishdan oladigan daromadliligini oshirish va bu orqali mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi. Davlat-xususiy sheriklik amaliyotida muvaffaqiyatli xorij mamlakatlari tajribasini o‘rganish, mamlakatimizda qo‘llanishi mumkin bo‘lgan jihatlarni tahlil qilish, iqtisodiyotimiz uchun xos bo‘lgan jihatlarni joriy etish muhim hisoblanadi. Mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyotida muhim bo‘lgan soha - sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklik amaliyotini yanada kengroq joriy etish, xususiy investorlarni kengroq jalb etish, loyihalarni moliyalashtirishda xususiy investorlar mablag‘laridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi O‘zbekistonda ta’lim, sog‘liqni saqlash, kommunal xo‘jalik, energetika, transport, axborot kommunikatsiya texnologiyalari kabi sohalarni rivojlantirish dolzarb bo‘lib turgan ayni vaqtda davlat-xususiy sheriklik munosabatlari, ijtimoiy muhim infratuzilma loyihalarini amalga oshirishda xususiy sektor mablag‘laridan foydalanish borasidagi islohotlarga qaramasdan, sohaga xususiy sektor

Published: 23.12.2024

Cite this article: Xo‘jamurodova Odina (2024). Barqaror iqtisodiy rivojlanish va yuqori iqtisodiy o‘sish suratlarini ta’minlashda xususiy davolash sektorlariga davlat, xususiy va xalqaro moliyaviy resurslarni va investitsiyalarni jalb etish va ularni rivojlantirishni.... Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320889

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

mablag‘larini yo‘naltirish darajasi pastligicha qolmoqda. Mamlakatimizda 2026-yilgacha xorijiy va mahalliy investitsiyalarni jalb etish strategiyasini amalga oshirish va bunda davlat-xususiy sheriklik asosida energetika, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, ekologiya, kommunal xizmatlar, suv xo‘jaligi va boshqa sohalarga 14 milliard AQSh dollarga teng investitsiya jalb etish, hamda, davlat va biznesning hamkorligini zamonaviy shakllarda tashkil etish, loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini aniqlash, ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan vazifalarni o‘zaro manfaatli sharoitlarda tezkorlik bilan hal etish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik tizimini samarali boshqarish va muvofiqlashtirishni talab etmoqda. Bu esa davlat va xususiy sheriklik amaliyotida moliyaviy munosabatlarni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni keng amalga oshirish zaruriyatini belgilaydi.

Xususiy sog‘liqni saqlash tizimini yanada rivojlantirish, hududlar aholisi uchun ixtisoslashtirilgan tibbiyot xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish, xususiy tibbiyot tashkilotlarining investitsiyaviy faolligini yaxshilash, ularni zamonaviy yuqori texnologiyali asbob-uskunalar va butlovchi qismlar bilan jihozlash, shuningdek, tibbiyot turizmini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

1. “Asaka” ATB orqali 28 million AQSh dollari miqdorida maqsadli imtiyozli resurslar ajratilishi natijasida respublikaning barcha hududlarida xususiy tibbiyot tashkilotlarini zamonaviy tibbiyot uskunalari bilan jihozlash bo‘yicha 286 ta loyiha amalga oshirilganligi ma’lumot uchun qabul qilingan.

2. O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, Moliya vazirligi, Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi, Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining (keyingi o‘rinlarda — Jamg‘arma) “Asaka” ATBga xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash uchun 50 million AQSh dollari miqdorida Jamg‘arma kredit liniyasini taqdim etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilgan.

3. Jamg‘armaning kredit liniyasidan:

- O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4290-son qaroriga muvofiq ajratilgan, tanlanmagan mablag‘lar qismi hisobidan;
- 10 yilgacha muddatga, shu jumladan 3 yillik imtiyozli davr, “Asaka” ATB marjasini hisobga olmasdan yillik 5 foiz stavka bilan;
- loyihalar qiymatining ko‘pi bilan 60 foizini moliyalashtirish uchun;
- pullik tibbiyot xizmatlariga bo‘lgan talab bo‘yicha tahlillarni va xususiy tibbiyot tashkilotida xarid qilinayotgan uskunalarda xizmat ko‘rsata oladigan malakali xodimlarning mavjudligini hisobga olgan holda hududlarda yangi import tibbiyot uskunalari (kosmetologiyaga oidlari bundan mustasno) va ularga butlovchi qismlarni xarid qilish uchun taqdim etiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi Sog‘liqni saqlash vazirligi va “Asaka” ATB bilan birgalikda 2020-yil 1-oktabrga qadar xalqaro moliya institutlari bilan xususiy tibbiyot tashkilotlarini rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash uchun 100 million AQSh dollari miqdorida uzoq muddatli kredit liniyalarini jalb qilishni ko‘rib chiqqan.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 16-apreldagi “Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4290-son qarori 3-bandining ikkinchi xatboshisidagi “200” raqami “150” raqami bilan almashtirilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 27-maydagi “Osiyo taraqqiyot banki va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki ishtirokida “O‘zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralarni ko‘rish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5129-

son qaroriga muvofiq, Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasi tizimidagi muassasalarning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘ta xavfli infeksiyalar tarqalishining oldini olish, profilaktika qilish, erta aniqlash hamda tegishli choralarni o‘z vaqtida amalga oshirish maqsadida:

1. Quyidagilar:

- Osiyo taraqqiyot banki (keyingi o‘rinlarda — OTB) bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida “O‘zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralarni ko‘rish” loyihasini amalga oshirish uchun 10 yillik imtiyozli davr bilan 40 yil muddatga jami 100 million AQSh dollari miqdorida imtiyozli qarz ajratilishi bo‘yicha kelishuvga erishilganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va OTB o‘rtasida 2020-yil 31-dekabrda qarz bitimi imzolanganligi;

- Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki (keyingi o‘rinlarda — OIIB) bilan O‘zbekiston Respublikasi o‘rtasida “O‘zbekiston Respublikasida koronavirus COVID-19 infeksiyasiga qarshi shoshilinch choralarni ko‘rish” loyihasini (keyingi o‘rinlarda — loyiha) amalga oshirish uchun 10 yillik imtiyozli davr bilan 30 yil muddatga jami 100 million AQSh dollari miqdorida imtiyozli qarz ajratilishi bo‘yicha kelishuvga erishilganligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va OIIB o‘rtasida 2020-yil 31-dekabrda qarz bitimi imzolanganligi;

- loyihaning umumiy qiymati 200 million AQSh dollari miqdoriga teng texnik-iqtisodiy asoslanishi ishlab chiqilganligi hamda vakolatli davlat organlarida ekspertizadan o‘tkazilganligi haqida ma’lumotga egamiz.

Xulosa (Conclusion). Umuman olganda, o‘tgan besh yil davomida olib borilgan islohotlar o‘zining ijobiy natijalarini berdi. Iqtisodiyotning yillik o‘rtacha o‘sishi — 5 foizni, sanoat sohasida esa 8 foizni tashkil etgani ham buning yaqqol isbotidir.

2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi “Inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan tamoyil asosida ishlab chiqilgan bo‘lib, mamlakatimizda erkin fuqarolik jamiyati va inson kapitalini rivojlantirish, tadbirkorlik faoliyatini yanada rag‘batlantirish, investorlar huquqlarini himoya qilish, xususiy mulk daxlsizligi va gender tenglikni ta’minlash kabi muhim vazifalarga qaratilgan. Strategiyaning pirovard maqsadi — davlatimiz va jamiyatimizning barcha soha va yo‘nalishlarida “Inson qadri uchun” g‘oyasini hayotga tatbiq etishni ko‘zda tutadi.

Umuman, O‘zbekistonning xorijiy investitsiyalarni jalb qilishga qaratilgan siyosati butun Markaziy Osiyoga bo‘lgan qiziqishni oshiradi. Bu siyosat natijasida yo‘lga qo‘yilgan xalqaro Toshkent investitsiya forumi esa butun Markaziy Osiyo mintaqasi iqtisodiyotiga xorijiy investitsiya va zamonaviy texnologiyalarni jalb etish, mintaqa tadbirkorlari bilan xorijiy ishbilarmon doiralar o‘rtasida to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqalarni yo‘lga qo‘yish uchun doimiy platformaga aylanmoqda. Chunki Markaziy Osiyo — yagona iqtisodiy makon va yagona investitsiya bozoridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi “2022 — 2026yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF60son, https:// lex.uz/uz/docs/5841063

2. The World Bank. (2019). What are public private partnerships?. https://ppp.worldbank.org/publicprivatepartnership/overview/whatarepublicprivatepartnerships.

3. https://president.uz

4. Leibenstein, H. (1966). Allocative efficiency vs. Xefficiency. The American Economic Review, 56(3), 392e415.

5. https://lex.uz